



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-may

VII-10-64-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining ish rejasiga asosan tumanda ishsizlik va bandlik (ayniqsa jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan shaxslar) holati to‘g‘risidagi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i E.Raximovning hisoboti haqida

Hududlarda aholi bandligini ta’minalash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va daromadlarini oshirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish va ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mavjud resurslar, imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi 450-sonli qarorlarini ijrosini ta’minalash va bu borada tumanda ishsizlik va bandlik (ayniqsa jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan shaxslar) holati yuzasidan tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i E.Raximovning hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi VII chaqiriq o‘ninch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda ishsizlik va bandlik (ayniqsa jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan shaxslar) holati yuzasidan tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘ribbosarlari (N.Jo‘lmatov, M.Rasulov, B.Sulaymonov, O.Shirinov, Sh.Isaqulov va S.Djumayeva), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov):

- tumanning 2025 yilga mo‘ljallab tasdiqlangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida aholi, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta’minalash bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida bajarish;

- mehnatga layoqatli aholi, jami bandlar va ishsizlar soni, iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar, uy-joy xo‘jaliklarining dehqon va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida bandlar, respublikadan tashqarida ishslashga ketganlar, mehnat bozoriga kirib keluvchilar,

ishga joylashtirishga muhtoj aholi, jamoat ishlariga jalg etilganlar va iqtisodiy nofaol aholi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tahlilini doimiy yuritish;

- tumandagi ishsiz fuqarolarni haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalg etish, ishsiz fuqarolarga subsidiya ajratish orqali yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish hamda bandligini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ko‘lamini kengaytirish;

- aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqliklar hamda imkoniyatlaridan kelib chiqib, korxona va tashkilotlardagi bo‘sh ish o‘rinlariga yo‘llanmalar berish;

- ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlik va kambag‘allikni kamaytirish choralarini ko‘rish, shuningdek, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko‘maklashish;

- yoshlarni, xotin-qizlarni, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, politexnikumlar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini, jumladan uyushmagan yoshlarni doimiy ish o‘rinlariga ishga joylashtirilishini ta‘minlash;

- tumanda o‘tkazilgan mehnat yarmarkalaridan olingan tajriba va ko‘nikmalardan kelib chiqib, mahallalar kesimida joriy yil yakuniga qadar mehnat yarmarkalarini tashkil etish va ushbu tajribani ommalashtirish choralarini ko‘rish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni tashkilotlardagi mavjud bo‘sh (vakant) hamda zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish tizimi joriy etish;

- mutaxassisliklar bo‘yicha ishga joylashtirish jarayonlariga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko‘maklashishda xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish choralar ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatovga:

- har oyda tasdiqlangan reja asosida joylarga chiqib, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o‘rganish;

- yangi ish o‘rlari yaratish va aholi bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni mahalla fuqarolar yig‘inlari va tarmoqlar kesimida tahlil qilib, masalaga mas‘uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbarlarga nisbatan choralar ko‘rish yuzasidan aniq takliflarni kiritib borsin.

4. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov) mazkur qaror bilan belgilab berilgan va funksional vazifasiga kiruvchi vazifalarning amalda bajarilishi yuzasidan har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot taqdim etsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH